



**Received:** October 6, 2024  
**Accepted:** December 20, 2024  
**Available online:** December 25, 2024

## **Yusub Ismailov**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## **Gulboxor Kinjayeva**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### **KSENOLOGIK TILSHUNOSLIK FANLARARO KSENOLOGIYANING O'ZIGA XOS TARKIBIY QISMI SIFATIDA**

#### **ANNOTATSIYA**

Ijtimoiy hayot jabhalarida keng tarqalgan, lekin ilmiy jihatdan nisbatan kam o'rganilgan shunday sohalar mavjudki, ular bugungi tobora chuqur ildiz otib borayotgan globalizatsiya asriga kelib alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday sohalaridan biri ksenologiya nomi bilan yuritiladigan ilmiy yo'nalish bo'lib, uning doirasida jamiyatdagi begona, yot unsurlar tadqiq etiladi.

Mazkur maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad fanlararo ilmiy yo'nalish hisoblangan fanlararo ksenologiya doirasida ksenologik tilshunoslikning mohiyati bilan bog'liq umumiy chizgilarni belgilab olishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida bir qancha vazifalar yechimi ko'zda tutilgan. Xususan, ulardan eng muhimlari soha adabiyotida fanlararo ksenologiya muammosining talqini tahlili, umumiy tarzdagi ksenologiyadan uning lingvistik tarkibiy qismini, ya'ni ksenologik tilshunoslikni ajratib olish hamda uni tasniflash, ksenologiyaning ifoda vositalarini tegishli misollar bilan yoritishdan iboratdir.

Tadqiqotda ilgari suriladigan ilmiy g'oya shundan iboratki, o'zga xalqlar va madaniyatlar vakillari bilan turli kommunikativ vaziyatlarda begona verbal va nonverbal unsurlardan hadik-sirash, ulardan qo'rqish yoki ularni inkor qi-

## **Yusub Ismailov**

Associate Professor, Doctor of Philosophy  
in Philological Sciences (PhD)  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: yussuf\_ismoil@mail  
ORCID iD: 0009-0005-0553-9018

## **Gulbokhor Kinjaeva**

Associate Professor, Doctor of Philosophy in  
Philological Sciences (PhD)  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: gulbaxor@1975yamdex.ru  
ORCID iD: 0009-0003-6994-7235

### **XENOLOGICAL LINGUISTICS AS A DISTINCTIVE COMPONENT OF INTERDISCIPLINARY XENOLOGY**

#### **ABSTRACT**

There exist fields that are prevalent in social life yet relatively understudied scientifically, which are gaining particular significance in this increasingly entrenched era of globalization. One such field is the scientific discipline known as xenology, within which foreign, alien elements existing in society are examined.

The primary objective of this article is to delineate the general parameters related to the essence of xenological linguistics within the framework of interdisciplinary xenology, and several tasks are envisaged within this objective. Specifically, the most salient of these include analyzing the interpretation of the problem of interdisciplinary xenology in the extant literature, distinguishing its linguistic component, i.e., xenological linguistics, from general xenology and classifying it, and elucidating the means of expression of xenology with relevant examples.

This research argues that effective intercultural communication is attained not by fearing or rejecting foreign verbal and non-verbal elements, but through understanding, tolerance, and respect for others' lifestyles. This is achieved through knowledge, experience, and competence, specifically via a xenological approach.

lish emas, aksincha, ularga ongli yondashish va bag'rikenglik bilan qabul qilish, o'zgarlar turmush tarzini hurmat qilish orqali samarali muloqotga erishish mumkin. Bunga bilim, tajriba va kompetensiya, aniqrog'i, o'zgarlar turmush tarziga ksenologik yondashuv orqali erishish mumkin. Ksenologiyaning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadigan ksenologik filologiya, xususan, ksenologik tilshunoslik ham bu borada o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Tadqiqot xususiyati uning metodologiyasini belgilab beradi. Soha adabiyoti tahlili metodi, induktiv va deduktiv, tasniflash, qiyosiy-tarixiy metod, komponent tahlil kabi universal metodlar yordamida lingvistik ksenologiya umumiy ksenologiya tarkibidan ajratib olinadi va tahlilga tortiladi, erishilgan muhim tadqiqiy natijalar orqali ahamiyatli xulosalar chiqariladi.

Xulosa shuki, lingvistik ksenologiyani tarkiban sotsiolingvistik, sof lingvistik (lisoniy) va madaniyatlararo muloqot kabi "uchlik" doirasida tasniflash mumkin bo'ldi. Til hodisalariga ksenologik yondashuv tili o'rganilayotgan mamlakat, ayniqsa, Germaniya haqidagi stereotip va tamg'alardan kognitiv ravishdagi asl voqelikni ajratib olishga, ona tili bilan nemis tilidagi farqlarni ksenologik jihatdan tizimlashga, begona til vaziyatiga mos kommunikativ aktga kirishish orqali til o'rganishning asosiy maqsadi hisoblangan kommunikativ kompetensiyaning o'zlashishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** ksenologiya, orfografik ksenizm, kommunikativ kompetensiya, grammatik ksenizm, leksik ksenizm, sotsiolingvistik ksenologiya, lingvistik ksenologiya, normativ ksenologiya, ksenologik yondashuv, kommunikativ akt.

## KIRISH

Jamiyatning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelgan XXI asr ilm-fan soha mutaxassislari, shuningdek, tilshunoslar oldiga ham zamonga mos talablarni qo'ymoqda. Shu paytgacha asosan tilning ichki tadqiqi bilan shug'ullanib kelgan strukturaviy yondashuv hozirda zamon talablari uchun yetarli bo'lmay qolmoqda. Turli mamlakatlar va xalqlar o'rtasida globallashuv talablariga mos ravishda tobora chuqurlashib borayotgan xalqaro hamkorlik muammolarini bugungi kunga kelib begona til, begona madaniyat, begona qadriyatlarni tilshunoslikda maxsus va yangi yondashuvlar doirasida va alohida o'rganish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Ana shunday shaklan va mazmunan innovatsion yondashuvlardan biri ksenologik yondashuv bo'lib, uning doirasidagi til bilan bog'liq muammolarni ksenologik tilshunoslikda o'rganilishni taqozo qiladi.

Xenological philology, especially xenological linguistics, plays a crucial role in this process.

The nature of the research determines its methodology. Employing universal methods such as literature review, inductive and deductive reasoning, classification, comparative-historical method, and component analysis, linguistic xenology is differentiated from general xenology and analyzed, and significant conclusions are drawn through important research results achieved.

The study concludes that linguistic xenology can be classified into three components: sociolinguistic, purely linguistic (lingual), and intercultural communication. This approach helps cognitively distinguish reality from stereotypes about the studied language's country, particularly Germany, systematize differences between native and German languages, and achieve communicative competence, the main goal of language learning, through appropriate communicative acts in foreign language contexts.

**Key words:** xenology, orthographic xenism, communicative competence, grammatical xenism, lexical xenism, sociolinguistic xenology, linguistic xenology, normative xenology, xenological approach, communicative act.

Ksenologiya o‘zi nima? Ksenologiya jamlovchi funksiyaga ega fan yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy hodisa sifatida aslida insoniyat shakllanishining ilk davrlaridan boshlab tarixan keng tarqalgan kishilik munosabatlarining o‘ziga xos turlaridan biridir. Shunga qaramay ksenologiya va u bilan bog‘liq muammolar mutaxassislar tomonidan ilmiy jihatdan kech o‘rganila boshlandi. Ksenologiya nisbatan yosh ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u 20-asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlandi va asta-sekin rivojlanib bordi. Ksenologiya bilan fanlararo va madaniyatlararo shakl va mazmundagi “begonalik va yotsirash” tadqiqi bilan shug‘ullanadigan ilmiy yo‘nalish nazarda tutiladi. Ksenologiyaning maqsad va vazifalari fanlararo metodlar yordamida tobora rivojlanib borayotgan baynalminallik sharoitida samarali madaniyatlararo kommunikatsiyaga erishish uchun har bir fan tarmog‘i tomonidan zaruriy kompetensiyalar ishlab chiqishdan va tatbiq qilishdan iborat [Riedel-Stiegler, 2017]. Ushbu maqsad va vazifalar doirasida ksenologiya begona va yot unsurlarning namoyon bo‘lish shakllari va turlari, o‘zlik va o‘zgalik (begonalik) o‘rtasidagi munosabatlar, o‘zgalarni tushunishda to‘siq va imkoniyatlar, xurofot, stereotip, ksenofobiyaning turlicha ko‘rinishlari, shuningdek, turli madaniyatlar vakillari o‘rtasida bir-birini tushunish muammolari bilan shug‘ullanadi.

Ksenologiya mavzusi doirasida ilmiy munozaralarning boshlanishiga kamerunlik M.Duala-M’Bedining “Ksenologiya. Begonalik haqidagi ta’limot va antropologiyada gumanizmning surib chiqarilishi” (“Xenologie: die Wissenschaft vom Fremden und die Verdrängung der Humanität in der Anthropologie”) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi qo‘lyozmasi asosiy turtki bo‘ldi [Duala-M’bedy, 2021]. O‘z vaqtida katta shov-shuvga sabab bo‘lgan va ahamiyatiga ko‘ra kelajagi porloq tuyulgan ushbu risola negadir mutaxassislarning diqqat markazidan chetga chiqa boshladi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, germaniyalik tilshunos olim A.Viyerlaxer bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini to‘plagan holda “Kulturthema Fremdheit” (“Begonalik – madaniyat mavzusi”) nomi bilan maqolalar to‘plamini nashrdan chiqardi. Risolada begona unsurlar bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, yo‘nalishlar va muammolar ilmiy-madaniy nuqtayi nazardan talqin qilingan [Albrecht, 1993]. Ushbu to‘plamdagi maqolalar tez orada mutaxassislar orasida ommaviy bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi va mavzu bo‘yicha, o‘z navbatida, keyingi qator samarali tadqiqotlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ana shunday tadqiqotlardan biri italiyalik mutaxassis J.Tidonaga tegishli bo‘lib, muallif “Begonalik. Ksenologiya bo‘ylab yo‘l ko‘rsatkich” (“Das Fremde: Ein Wegweiser durch die Xenologie”) nomli risolasida ushbu kam o‘rganilgan sohaning naqadar ko‘p qirrali ekanligini isbotlab bergan [Tidona, 2014]. Shu o‘rinda “ksenologiya” yoki “begonalik” atamaları qo‘llanilmay turib ham, mazmunan ushbu mavzu doirasida ko‘plab ilmiy taqdiqotlarning mavjud ekanligiga e’tiborni qaratish mumkin. O‘zbekistonlik yosh iqtidorli tadqiqotchi G.Raximovanning Germaniyada o‘zbeklar va O‘zbekiston qiyofasiga bag‘ishlangan ilmiy ishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi [Rakhimova, 2018].

## TADDIQOT METODLARI

Soha adabiyotlari bo‘yicha ilk kuzatuvlarning o‘zidanoq ksenologiya bilan u

yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjudligiga amin bo‘lish mumkin. Ulardan eng yaqqollari atama va ta‘rif muammolaridir. Aksariyat yangi ilmiy muammolarga xos ravishda bu borada ham mutaxassislar o‘rtasida shu paytgacha yakdillik mavjud emas. Shu o‘rinda nemis tilidagi leksikografik manbalarda “ksenologiya” atamasining tarjimasini va talqiniga atroflicha to‘xtalamiz. Yunon tilidan kirib kelgan “ksenologiya” (*xenios* – “begona shaxs, mehmon”, *logos* – “so‘z, nutq”) so‘zi nemis tilidagi ensiklopedik manbalarda uning *Fremdheit* (“begonalik”) sinonimi orqali talqin qilinishi keng tarqalgan: *Fremdheit das Fremdsein, das Nichtvertrautsein* [Klappenbach & Steinitz, 1967]: *das Nichtvertrautsein: das Anderssein* [Bünting, 1996]: *das Fremd -, Unvertrautsein, völliges Anderssein; betonte Zurückhaltung* [Wahrig, 1997]. O‘zbek tilida ushbu talqinlarni *begonalik*, shuningdek, *bexabarlik, bilmaslik, tanish emaslik* kabi mazmunda tarjima qilish mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa so‘z talqini quyidagicha ko‘rinishga ega:

“BEGONA 1. Begona kishining holiga tushishlik. 2. Yot, chet kishilarga xos bo‘lgan munosabat. Shu o‘rinda to‘laqonlilikka intilish maqsadida mazmunan ushbu so‘zga yaqin leksemalarga murojaat qilamiz.

BEGONA I. (f. Qarindosh yoki tanish bo‘lmagan; yot). 1. Qarindoshlik yoki boshqa jihatdan bir toifadagi, guruhdagi kishilardan chetda turuvchi, ularga munosabati bo‘lmagan, yot; begona qilmoq; 1) o‘zidan uzoqlashtirmoq, yot kishilar qatoriga o‘tqazmoq; 2) *ko‘chma* chetga ketkizmoq, bironing qo‘liga, ixtiyoriga o‘tkazib yubormoq. 2. Tegishli bo‘lmagan, chetdan kelgan; chet. 3. O‘zgalarga tegishli, notanish, o‘zga. 4. *ko‘chma* Xabari bo‘lmagan, ko‘rmagan, bilmagan, yot.

BEGONA II. Beklarga, beklar nasliga xos bo‘lgan, dabdabali. hashamatli, beklarcha. BEGONALASHMOQ. “Qarindoshlardan, yaqin kishilardan uzoqlashmoq, yot kishidek bo‘lib qolmoq” [Mirzayev, 2006; 204].

Ko‘rinib turibdiki, ksenologiya so‘zining talqinida *begona, boshqa, biron, o‘zga, yot, chet, yot unsur* kabi sinonimlar takrorlanib keladi. Leksikografik tahlilda *bexabarlik, bilmaslik, tanish emaslik, chet kishilarga xos bo‘lgan munosabat* kabi ma’nolar ham uchraydi. Aslida *ksenologiya* atamasining turli tillardagi ensiklopedik talqini (*Fremdheit, begonalik*) ayni so‘zning etimologik talqiniga (qadimgi grekchadan *xenios*, “begona shaxs, mehmon”, *logos*, “so‘z, nutq”) qisman mos keladi xolos.

Ksenologiya so‘zining ensiklopedik talqini uning mohiyatini to‘la ochib bera olmasa-da, uning mazmunan ko‘p qirrali tushuncha ekanligini ifodalaydi. Tizimlilikka intilish maqsadida nemischa “Fremdheit” va o‘zbekcha “begonalik” so‘zlarining ensiklopedik ta’riflarini jamlash orqali tasniflashga harakat qilamiz. Buning natijasida quyidagilar yuzaga keladi:

- 1) boshqa mamlakat, xalq, joy, hudud, shahar, oilaga oid;
- 2) boshqalarga qarashli, boshqa kishilarga tegishli;
- 3) noma’lum, notanish, yangi, boshqacha;
- 4) g‘alati, begona, kamnoma.

Birinchi va ikkinchi guruh talqinlari “kingadir qarashlilik, o‘ziga tegishli emaslik, bironniki” ekanligini, uchinchi – “bilib olish, bilishni” (kognitiv jihat) anglatasa, oxirgi talqin “me’yordan chekinishni” bildiradi. Shu o‘rinda yuqoridagilardan

kseonogiya mohiyati bilan bevosita bog‘liq ilk xulosalar shakllanadi. Birinchidan, begonalik, begonasirash kishilik munosabati sifatida **tarixiy** shakllangan munosabatlar turlariga kiradi, chunki har bir tarixiy bosqichda o‘ziga xos begonalik tafakkuri hukmronlik qilgan. Ikkinchidan, ayni paytda o‘z mamlakati, ona tili, madaniyatidan kelib chiqqan, ularni boshqalar bilan bilvosita va bevosita **taqqoslash** orqali begonalik boshqa mamlakat, uning tili va madaniyati notanish yoki g‘alati tuyiladi. Uchinchidan, yuqoridagi aksariyat ma’nolar talqini **salbiy** yoki shunga yaqin mazmunga ega. Bu holat o‘z ifodasini “no” inkor old qo‘shimchasi, “birov”, “emas” inkor so‘zlari orqali aks etsa, “begona” ayni paytda o‘ziga tegishli emasligini yoki boshqaniki ekanligini bildiradi. Yanada to‘laqonli ma’no esa, albatta, aniq kontekstlarda namoyon bo‘ladi. Mutaxassislar ta’kidlaganlaridek, ishonchlilikka, o‘z navbatida, kontekstlarga murojaat qilish orqali erishish mumkin [Plé, 2003; 32].

Yuqorida qayd qilinganidek, ksenologiyaning fanlararo, asosan ijtimoiy fanlar, eng avvalo, sotsiologik, shuningdek, siyosatshunoslik, pedagogik, madaniyatlararo muloqot va filologik tadqiqot obyekti sifatidagi namoyon bo‘lishi, uning umumiy va tegishli sohaga oid mohiyatini alohida yoritishni talab qiladi.

Begonalik o‘z tabiatiga ko‘ra hadiksirash, kishilarda hatto qo‘rquv keltirib chiqaradi. Inson begona vaziyatlar bilan o‘rab olingach, unda o‘zini himoya qilishga ehtiyoj paydo bo‘ladi, Ammo qanday? Ksenologik bilim, tajriba, kompetensiya, bizningcha, ayniqsa ksenologik kompetensiya orqali ayni maqsadga erishish mumkin. Ksenologik hodisalarning funksional jihatdan yoritilishi jamiyatda mavjud muammolarni, ayniqsa, mamlakatlar, millatlar, elatlararo, dinlararo majoralarni, jamiyatning turli qatlam va tabaqalaridagi muammolarni yechimiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin. Bu borada ayrim sohalarda nafaqat ilk yutuqlarlarga, balki tajribalarga ham erishilgan. Fransiyaning Parij shahrida 1995-yil 16-noyabrda ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha BMT Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida qabul qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” bunga yaqqol misol bo‘la oladi [YUNESKO, 1995]. Unda insoniyatning yanada tezlashib borayotgan globallashuv jarayoni, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, o‘zaro bog‘liqlik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko‘chib yurishi, shaharlashuv hamda ijtimoiy tuzilmalarning yangidan o‘zgarishi asrida yashayotgani qator salbiyliklardan xoli bo‘lmagan vaziyatni hosil qilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Deklaratsiyada turli va keng tabaqalarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan tushunmovchilik, ziddiyat va majoralar jamiyatning keng qatlamlarida bilim va tarbiya orqali mavjud muammolarni hal qilish masalalari bag‘rikenglik nuqtayi nazaridan yoritilgan. O‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy muammolar yechimiga yo‘naltirilgan ilm-fan sohasi bu borada chetda turmasligi va o‘zining munosib hissasini qo‘shishi lozim. Deklaratsiyada jamiyatdagi ksenologik hodisa – “yotsirash” tushunchasining talqini bilan berilib, “yotsirash” so‘zi bir necha bor takrorlanib keladi. Unda jamiyatning turli jabhalarida mavjud qo‘rquv va yotsirashning yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash orqali oldini olish mumkinligi e’tirof etilgan. Bag‘rikenglik yoshlarni mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritishga o‘rgatishi, ularda axloqiy qadriyatlarga asoslangan qarashlarni shakllantirishga ko‘maklashishi lozim. Shu o‘rinda ijtimoiy-siyosiy sohalarda “xenios” so‘zidan

yasalgan va ksenologiyaga mavzu jihatidan yaqin turgan “**Xenophilie** – *ksenofil (begonalarga moyillik, xush ko‘rishlik)*” va “**Xenofobie** – *ksenofobiya (begonalardan qo‘rqish)*” atamaları matbuotda va ilmiy-ommabop manbalarda nisbatan keng qo‘llanilishiga e‘tibor qaratish mumkin.

Ksenologiyaning ilmiy talqini begona unsurlar jamlanmasining tadqiqoti bilan shug‘ullanadigan fanlararo tadqiqotiga mos kelib, eng avvalo ilmiy-madaniy fanlar doirasiga tegishlidir. Ayni paytda “ksenologiya”ning o‘zbekcha so‘zma-so‘z tarjiması “begonashunoslik” okkazianalizmiga yaqin kelsa-da, o‘zbekcha “begonashunoslik” jarangsiz tuyilishi uchun emas, balki o‘zining evfemistik funksiyasi va ko‘plab atamalar kabi o‘zining lo‘ndaligi sababli afzallikka ega va ushbu tadqiqotning ishchi atamasi sifatida qabul qilinadi.

Shu o‘rında ksenologiya hodisasini unga yaqin turadigan boshqa ijtimoiy hodisalardan farqlash masalasiga oydinlik kiritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu esa, o‘z navbatida, oson vazifa emas. Dunyoning aksariyat, ehtimol barcha mamlakatlarida olib boriladigan til siyosati misolida bunga amin bo‘lish mumkin. Til haqidagi qonun, u yoki bu darajada til bilan bog‘liq ayrim me‘yoriy hujjatlar ksenologik yondashuv asosida qabul qilinishi jahon miqyosida keng tarqalgan amaliyotdir. Davlatning til siyosati doirasida ona tilidan tashqari mamlakatda istiqomat qiladigan turli xalqlar tilida o‘qitishning ham yo‘lga qo‘yilganligi, ta‘lim tizimida chet tillarining o‘qitilishi ksenologik jihatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ksenologiyaning eng yaqqol namoyon bo‘lishi tilga puristik yondashuvda o‘z aksini topadi. Ma‘lumki, purizm ona tilini chet tillari ta‘siridan himoya qilishga va chet tillaridan ona tiliga kirib kelgan begona unsurlardan tozalashga qaratilgan milliy harakat bo‘lib, aslida beg‘araz maqsadda ona tiliga g‘amxo‘rlikka yo‘naltirilgan purizm, ayni paytda millatchilik “bo‘yog‘i” bilan salbiy oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Buning natijasida dunyoning ba‘zi mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan va hozirda ham uchrab turayotgan va hatto sodir bo‘layotgan katta-kichik kelishmovchiliklar, majoralar va hatto urushlarning sabablari noto‘g‘ri til siyosati natijasi tufayli ekanligiga yetarli misollar keltirish mumkin.


Demak, ksenologik yondashuvni ona tili bilan boshqa tillar o‘rtasidagi munosabatlar vujudga keltiradi. Ona tilining o‘zi tabiiy ravishda begona va yot unsur deb qaralmasligi ksenologiyani keltirib chiqarmaydi. Ayni paytda tilga ksenologik yondashuv faqat salbiy jarayon sifatida qaralmasligi lozim. Yuqorida to‘xtalib o‘tilgan til haqidagi qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlar bunga misol bo‘la oladi. Shu o‘rında ksenologiyaning funksional jihatdan ikki ko‘rinishda, kognitiv va normativ shaklida namoyon bo‘lishiga e‘tibor qaratish lozim. Kognitiv ksenologiya ratsional ravishda baholashdan xoli bo‘lgan holda til haqidagi faktik bilimlarga asoslangan holda muammolar (til siyosati, til sathlari) yechimiga yondashsa, normativ ksenologik yondashuv emotsional ravishda munosabat bildirish, xurofot, stereotip va turli xil “tamg‘alarga” moyilligi bilan ajralib turadi. Aslida ksenologik til vositalari, ya‘ni ksenizmlar begona unsurlarga nisbatan “kam holatlarda xolis (neytral) munosabatda, ratsional emas, asosan assosiativ ifoda shaklida namoyon bo‘lishi sababli begona unsurlarga nisbatan yoki maftunkorlik, yoki yotsirash orqali ularni qabul qilmaslik

bilan ajralib turadi va odatda shuning uchun ham hazillar, karikaturalar, adabiyot, kino va teatrda, reklamalarda o‘z ifodasini topadi” [Jung, 1993; 223]. Kognitiv ksenologiyada obyektivlik, normativ ksenologiyada esa subyektivlik ustuvorlikka ega. Ilmiy jihatdan ksenologiyaning ushbu har ikki turi bir xil darajada muhim.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Jamlovchi funksiyasiga ega har qanday hodisa, o‘z navbatida, aniq tarkibiy qismlardan, ya’ni komponentlardan iborat. Ushbu xususiyat o‘zining universalligi bilan ajralib turadigan ksenologiyada yaqqol tarzda namoyon bo‘ladi. Ilmiy va soha adabiyotlari tahlili ksenologiyaning o‘nlab turlari, xususan ksenologik filologiya kabi turi ham mavjudligini ko‘rsatadi. Filologiyaning esa, o‘z navbatida, ikkiga – tilshunoslik va adabiyotshunoslikka bo‘linishidan kelib chiqib, ksenologik adabiyotshunoslik va ksenologik tilshunoslik haqida bahs yuritish mumkin. Ksenologik adabiyotshunoslik o‘z xususiyatidan kelib chiqib turfa xil va boy manbalarga asoslangan holda adabiy manbalarda namoyon bo‘ladi. Ulardan eng keng tarqalganlari tarjimashunoslik doirasida germevntik tahlil va badiiy adabiyot bo‘lib, aynan badiiy adabiyot ksenologiya uchun turlicha tadqiqot mavzularini taqdim etishi mumkin (1-rasmga qarang):

*1-rasm. Ksenologiya turlari*



Mazkur maqolada ksenologik filologiyaning boshqa turi, ayniqsa, ksenologik tilshunoslik masalalarining yoritilishi maqsad qilib olingan. Soha adabiyoti tahlili ksenologik lingvistika asosan sotsiolingvistika (til siyosati), lingvistika (til sathlari) va madaniyatlararo kommunikatsiyalardan iborat uch yo‘nalishda o‘z ifodasini topishi mumkinligi ko‘rsatdi. Shu o‘rinda *ksenologik lingvistika* va *lingvistik ksenologiya* atamalarini chalkashtirmaslik lozim. 1-rasmda ifodalanganidek, *ksenologik lingvistika* umumiy va jamlovchi atama sifatida, *lingvistik ksenologiya* esa ksenologik lingvistikaning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladiki, bunga ushbu maqola davomida amin bo‘lish mumkin.

### Sotsiolingvistik ksenologiya

Tilning jamiyatning koʻzgusi sifatidagi funksiyasi, yaʼni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida u yoki bu shaklda oʻz aksini topishidan kelib chiqilsa, jamiyat aʼzolari tomonidan tilga turlicha munosabat mavjud ekanligi tabiiy holdir. Aksariyat hollarda ona tili (oʻz tili) va chet tillari (begona tillar) taqqoslanishiga asoslangan holda boshqa tillarga boʻlgan begonalarcha munosabat turlicha, ijobiy, neytral yoki salbiy (asosan stereotip va klishelar) koʻrinishida namoyon boʻladi. Xususan, kishilik tarixida nemis tiliga nisbatan turli xalqlarda turlicha stereotiplar mavjud boʻlib kelgan. Taqdir taqozosi bilan nemis tilidek turli xurofot, tamgʻa va masxaralarga sabab boʻluvchi ikkinchi tilni topish qiyin. Nemis tilining 1200 yillik tarixi (undan oldin 200 yillik yozuvsiz shaklda mavjudligi hisobga olmaganda) davomida unga nisbatan hech qachon befarq boʻlishmagan. “Nemis tilini yo eng goʻzal idioma sifatida koʻklarga koʻtarishgan yoki faqat harbiylarning ifoda usuli” deya yerga urishgan. 1878-yili oʻzining Yevropa boʻylab ikkinchi sayohati doirasida Germaniyaga tashrif buyurgan taniqli amerikalik yozuvchi M.Tven oʻzining “Xorijlik sargardon” (“A Tramp Abroad”) asariga ilova qilingan “Dahshatli nemis tili” (“The Awful German Language”) esesida hazilomuz shaklda unga nemis tilini naqadar begona tuyulishini taʼkidlab oʻtadi [Twain, 1880]. Olmonshunoslikning klassik asarlari qatoridan oʻrin olgan mazkur asar oʻzbek tilshunoslarining nazarlaridan ham chetda qolmagan [Abdullayeva, 2015]. “Filologik bilimlarimga asoslanib men shunga ishonch hosil qildimki, qobiliyatli kishi ingliz tilini (yozuv va talaffuzdan tashqari) 30 soatda, fransuz tilini 30 kunda va nemis tilini 30 yilda oʻrgana olishi mumkin”, deya olovga suv sepadi amerikalik yozuvchi. M.Tven uning nazdidagi nemis tilidagi oʻziga xos xususiyatlar: kilometr lab uzun soʻzlar, gaplarning oxirida chorak soatdan keyin keladigan feʼl, feʼldan keyin esa yana *haben, sind, gewesen, gehabt haben, geworden sein* kabi feʼl shakllari qoʻyilishidan ajablanadi. Tilga ksenologik yondashuv faqat salbiy emas, ijobiy munosabatdan iborat boʻlishi mumkinligini M.Tven misolida yaqqol koʻrish mumkin. U nemis tilini betartib va tizimsiz til ekanligini, bir tomondan qatʼiy qoidalar va ayni paytda ularda istisnolar mavjudligini, toʻrtta kelishikning chalkash ekanligini, bir xil jaranglaydigan va qoʻshma soʻzlarning haddan tashqari koʻpligini, ajraladigan qoʻshimchalarni va otlarning rodlarga boʻlinishini tanqid qilsa, otlarning har doim bosh harf bilan yozilishini, nemischa talaffuzning taʼsir kuchini va ushbu tilda oila, muhabbat, tabiatni ifodalaydigan va ertaksimom soʻzlarning koʻpligini maqtab oʻtadi. Uni nemis tilining deyarli barcha sathlaridagi til hodisalari ajablantirgan va ularni oʻz nuqtayi nazaridan tanqid qilgan. Tanqid aksariyat hollarda bilvosita, baʼzan esa bevosita ingliz tili bilan taqqoslash orqali kechadi, masalan, *you, she, her, it, they, them* shaxs olmoshlariga nemis tilida bir olmosh – *siening* qoʻllanilishi koʻp chalkashliklarga olib kelishi, ayollarga tegishli leksemalarining ayrimlarining sreydny rodga tegishli ekanligi M.Tvenni juda “lol qoldirgan”. Shuningdek, M.Tven nemis tilini takomillashtirish uchun ayrim takliflar ham beradi. Xususan, feʼlni oldingi oʻrinlarga olib chiqish, Dativ kelishigini, qoʻshma soʻzlarni bekor qilishni va ingliz tilidan koʻplab soʻzlarni “import” qilish, masalan, nemischa “Ach Gott” oʻrniga inglizcha “Goddamn” iborasini oʻzlashtirish tavsiyasini beradi [Hanowell, 2018].

Bugun kunga kelib, M.Tvenning ingliz tilidan nemis tiliga ko‘plab o‘zlashmalarni kiritish orzusi amalga oshayotganligiga amin bo‘lish mumkin. Yozuvchining nemis tiliga munosabati va uning takliflari subyektiv ko‘rinisa-da, ksenologik yondashuv uchun yaqqol misol bo‘la oladi. Ko‘rinib turibdiki, subyektivlik ksenologiya uchun muhim belgilardan biri ekan.

Sotsiolingvistik ksenologiya qator omillar ta‘sirida shakllangan bo‘lib, nemis tiliga nisbatan turli mintaqa, hudud va mamlakatlarda o‘ziga xos munosabat yuzaga kelgan. Xususan, Yevropa xalqlari, ayniqsa, Germaniyaniga qo‘shni mamlakatlar xalqlari nemis tiliga befarq munosabatda bo‘lishmagan va bu holat hozirda ham saqlanib qolgan. Germaniya har jihatdan Yevropaning eng yirik davlati, Yevropa Ittifoqining “lokomotivi” bo‘lishiga qaramasdan, nemis tili hatto ushbu tashkilotning ishchi tili ham emas. Buning sababini tarixdan izlash kerakligi esa ko‘pchilikka ayon: nemis tilining sotsiolingvistik ksenologiya bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlaridan biri “NS – Deutsch”, ya‘ni 1933–1945-yillarda davom etgan fashistlar hukmronligi davridagi shakllangan va faol qo‘llanilgan natsional-sotsialistlar leksikasi bo‘lib, tarixan qisqa davrni o‘z ichiga olganiga qaramasdan fashistlar undan o‘z mafkurasini targ‘ib etishda keng foydalanganlar. Dadil qadamlar bilan rivojlangan demokratik yo‘ldan ketayotgan hozirgi Germaniya Federativ Respublikasida 12 yillik fashistik o‘tmishni eslatadigan qator so‘zlar qonun bilan ta‘qiqlangan bo‘lib, ulardan eng keng tarqalganlaridan va bugungi kunlarda ham ko‘pchilikka ma‘lum so‘zlaridan biri *Heil* dir. Ushbu fashistik olqishlov iborasi aslida kelib chiqishiga ko‘ra sog‘likni ifodalaydi va diniy kontekstlarda ham qo‘llanilgan. Endilikda esa *Heil* nemis tilidan qonun bilan o‘chirilgan o‘nta so‘zlar qatoriga kiradi [Schieferdecker, 2023].

Ayni paytda demokratik Germaniyada shu kabi va boshqa ta‘qiqlangan so‘zlarni g‘arazli maqsadlarda qo‘llab turish va buning uchun jazolanish holatlari Ikkinchi jahon urushi yakunlanganligidan 80 yildan keyin ham o‘z aks-sadosini eslatib turadi, matbuotda bu haqdagi muntazam xabarlar berilib boriladi, jamiyatda keng munozaralarga sabab bo‘ladi. “Die Welt” gazetasining yozishicha Tyuringiya o‘lkasida “Germaniya uchun alternativa” o‘nglar partiyasining a‘zosi B.Xoyekke o‘zining saylov kampaniyasi doirasida ta‘qiqlangan “Alles für Deutschland” fashistlar shiorini qo‘llaganligi nafaqat matbuotda shov-shuvlarga olib keldi, balki ushbu sobiq tarix o‘qituvchisiga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atishga sabab bo‘ldi.

Shu mavzu doirasidagi boshqa bir misolni keltirish mumkin: Nemis matbuotida futbol bo‘yicha Germaniya terma jamoasining 2024-yilgi Yevropa chempionatida yangi sport liboslari bilan bog‘liq kutilmagan shov-shuvli yangilik e‘lon qilindi. “Bild” gazetasining xabariga ko‘ra, futbol triklarining (liboslarining) 4, 14 va 44 orqa raqamlarining yangi yozuv dizayni o‘z vaqtida fashistlar ramzi bo‘lgan svastikaga (uchlari qayrilgan krest) o‘xshab ketgan va bu holat jamoatchilik o‘rtasida xavotirli munozaralarga sabab bo‘lgan. Shu paytgacha bunday o‘xshashlikni hech kim sezmagandligidan ko‘pchilik hayratda. Natijada Germaniya futbol federatsiyasi voqeaga aralashishga majbur bo‘ldi. Federatsiya qaroriga ko‘ra, endilikda terma jamoa a‘zolarini 1 dan 23 gacha raqamlashga, 4 va 14 raqamlari dizaynini qayta o‘zgartirishga, 44 raqamini esa milliy jamoada hech kimga berilmaydi [Hüber et

al., 2024]. Sotsiolingvistik ksenologiya bilan bevosita va bilvosita bog‘liq shu kabi misollarni Germaniya matbuotidan ko‘plab keltirish mumkin.

Boshqa bir misolga murojaat qilamiz: Ikkinchi jahon urushi yakunlanish arafasida, aniqrog‘i, 1945-yilning fevralida Qizil Armiya Sharqiy Germaniyaning Breslav shahrini o‘rab olgach, millionlab nemislar *“Die Russen kommen!”* (“Ruslar kelishyapti!”) qo‘rqinchli chaqirig‘i ostida G‘arbgga qarab qochishgan. Oradan 80 yilga yaqin davr o‘tganiga qaramasdan, ushbu ibora hozirda ham matbuotda uchrab turadi, ushbu nom ostida o‘nlab filmlar olindi va hatto qo‘shiqlar yaratildi [“Die Russen kommen”, 2024]. Kezi kelganda nemis tilida ksenologiya bilan bog‘liq *Angst* (“qo‘rquv”), *Fremdenhass* (chet elliklarga nisbatan nafrat) so‘zlarining keng muomalada qo‘llanilishiga e‘tibor qaratish mumkin.

Nemis tilida sotsiolingvistik ksenologiya til siyosati, dialektlar, boshqa tillardan nemis tiliga kirib kelgan o‘zlashmalar doirasidagi purizm, til assimilyatsiyasi, xususan, ingliz tili gegenomiyasi ta‘siri tufayli yozuvlarda (Köln/Cologne) o‘z aksini topadi. Ayniqsa, 1945-yilgacha bo‘lgan natsional-sotsialistik germanistikada o‘zlashma so‘zlarga nisbatan *“Reinheitsideologie”* (“tozalik mafkurasi”) doirasida kuchli qarshi turishdan, ayniqsa, fransuz tilidan kirib kelgan so‘zlarga, bizning kunlarimizda ham ba‘zida ingliz tiliga nisbatan ksenologik munosabat doirasida tanqidiy muhokamalar uchrab turadi [Göttert, 2010]. Nemis tili tarixida “lingvistik shovinizm”, natsistlar tomonidan natsional-sotsialistik agitatsiyada turli maqsadlarda “natsional-sotsiolingvistik germanistika“ tushunchalari mavjudki, ularning talqini alohida tadqiqot obyektini tashkil qilishi mumkin.

Nihoyat, tilga sotsiolingvistik ksenologiyani eng yorqin misollaridan biri hozirda G‘arb mamlakatlarida dolzarb bahs-munozaralarga aylangan gender tili mavzusidir. Jamoatchilik o‘rtasida bahslar shu darajada avjiga chiqdiki, Germaniyaning ayrim federal o‘lkalarida, xususan, Saksoniya va Saksoniya-Anxaltda maktab va universitetlarda genderlashni, ya‘ni erkak va ayol jinsidan tashqari yana neytral jinsni tilda ifodalashini taqiqlashgacha borib yetdi [“Ataman für entspanntere”, 2024].

### **Lingvistik ksenologiya**

Ushbu tadqiqot doirasida ksenologik jihatdan chet tili sifatida nemis tili tahlilga tortilar ekan, shu o‘rinda nemis tilida “chet tili”, ya‘ni *die Fremdsprache* qo‘shma so‘zi o‘zbek tiliga aslida “chet tili” emas, “begona til” kabi so‘zma-so‘z tarjima qilinishi maqola mazmuniga tamomila mos keladi va bu ehtimol tasodif emasligi bilan e‘tiborni tortadi. Soha adabiyotlarida hatto “chet tili”ni “ksenologik fan” sinonimi bilan bir qatorga qo‘yish holatlari uchraydi [Roche, 2009]. Bizning nazarimizda ushbu xulosa juda o‘rinli, chunki chet tillarini o‘rganishda (ongli va ongsiz ravishda ona tili bilan taqqoslash natijasida) aksariyat hollarda va asosan begona, yot til unsurlariga duch kelinadi [Ismailov, 2024a]. Bu borada chet tili faniga teng keladigan boshqa fanlarni keltirish qiyin. Quyida lingvistik ksenologiyani namoyon bo‘lish holatlarini an’anaviy til sathlari doirasida ayrim qirralarini ko‘rib chiqar ekanmiz, ko‘plab va turfa xil misollarda bunga amin bo‘lish mumkin.

### Orfografiya yoki orfografik ksenologiya

Nemis tili Lyuksemburg tili bilan birgalikda barcha otlarning **katta harflar** bilan yozilish (Versalien) qoidasiga amal qiladigan kamchilik dunyo tillari qatoriga kiradi. Verzal uslubi barok asri hisoblangan 17-asrdan qo'llana boshlandi va asrlar davomida takomillashib keldi. Nemis tilini chet tili sifatida o'rganadiganlar uchun ushbu orfografik hodisa butunlay begona unsur hisoblanadi va til o'rganishda muayyan qiyinchiliklardan xoli emas. Jahon tillarining aksariyatida faqat atoqli otlarning bosh harflarda yozilayotgan bir paytda nemis tilining barcha otlarning bosh harf bilan yozilishi uni o'rganuvchilarda shu paytgacha savollar uyg'otib kelishi, nemis alfavitida *ä, ö, ü, ß* kabi o'zbek o'quvchisiga g'ayritabiiy tuyiladigan harflarining mavjudligi, o'zbekcha *x, j, sh* va *ch* harflariga nemis alfavitida *ch, sh, sch, tsch* harf birikmalari bilan berilishi o'ziga xos ksenizm sifatida nemis tilining orfografik xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbek tili uchun begona bo'lgan navbatdagi orfografik ksenizm aksariyat matnlarda kishilar yoshining (qavs ichida) alohida ko'rsatib o'tilishidir. Quyida ikkita misol keltiramiz:

1. Eine Gruppe sozialdemokratischer Historiker um Heinrich August Winkler (85, Humboldt-Uni Berlin) hat einen Brandbrief an den SPD-Vorstand verfasst [“Putin-Brandbrief”, 2024].

2. Fahrer (62), Ersatzfahrer (53) und die 48 überlebenden Passagiere waren nach dem Unfall in Kliniken gebracht worden. Polizeisprecher Olaf Hoppe (46): Glücklicherweise konnte der Großteil der Personen unverletzt oder nach ambulanter Versorgung leichter Verletzungen wieder aus dem Krankenhaus entlassen werden [Langner, 2024].

Orfografik ksenolizm bilan bog'liq eng yangi o'zgarishlardan biri otlarni genderlash muammosi bo'lib, hozirda genderlikning quyidagi 6 belgida ifodalanishi nemis tili orfografiyasi amaliyotiga kiritilgan [“Richtig Gendern”, 2022]:

1. Gendersternchen: Lehrer\*innen. (yulduz belgisi)
2. Binnen-I: ArbeiterInnen. (I ajratuvchi belgisi)
3. Unterstrich: Student\_innen. ( \_ (pastki) belgisi)
4. Schrägstrich: Der/die Professor/in. ( / ajratuvchi belgisi)
5. Paarform: Schüler und Schülerinnen. (juftlik shaklida)
6. Geschlechtsneutral: Lehrkräfte. (gender jihatdan neytral so'z bilan)

### Fonetik ksenizmlar

O'zbekzabon nemis tilini o'rganuvchilari uchun nemis tili talaffuzi begona unsurlarga juda boy. Bu aslida turli tillar oilasiga mansub nemis va o'zbek tillari uchun tabiiy holat. Shunday bo'lsa-da, nemis tilida 40 ta fonema, umlaut, urg'uning o'zakka tushishi, diftonglar, unilarning qisqa va cho'ziq turlari mavjudligi va ularning so'z ma'nosiga ta'siri, R, r, (**R**eise, der) S, s, (**S**ommer, **W**asser), V, v (**V**ase, vier) fonemalarining turli holatlarda turlicha talaffuz etilishlari ksenologik jihatdan alohida ahamiyatga ega.

## Grammatik ksenizmlar

Nemis va o‘zbek tillarining turli tillar oilasiga kirishlari va nemis tilining flektiv, o‘zbek tilining esa agglyutinativ til ekanligi ksenologik jihatdan, ayniqsa, grammatikada keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ulardan ayrimlarini quyida keltirib o‘tamiz:

Artikl: *der, die das* aniq va *ein, eine* noaniq artikllarning mavjudligi, ularning otlarni rodini belgilashdagi, turlanish funksiyalari.

Ko‘plik qo‘shimchalari: o‘zbek tilida faqat yagona “*lar*” ko‘plik qo‘shimchasidan farqli ravishda uning nemis tilida *-e, -en, -er, -s*, muqobillari, shuningdek, umlautlar orqali (*a-ä: der Vater – die Väter, o – ö: der Ofen – die Öfen, u - ü: die Mutter – die Mütter*), yoki hech qanday qo‘shimchasiz, faqat artiklning o‘zgarishi orqali (*der Lehrer – die Lehrer*) ko‘plik shaklining yasalishi.

Fe‘l va uning boshqaruvi: ushbu fe‘l boshqaruv qo‘shimchasi va tegishli kelishik uyg‘unligida yaxlit keluvchi grammatik ksenizm o‘zbek tili uchun begonaligi sababli nemis tilini o‘rganishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi: *denken an + Akk, (haqida) o‘ylamoq, sich vorbereiten auf+Akk, tayyorlanmoq (biron narsaga), gratulieren zu+Dativ tabriklamoq (biron munosabat bilan)*. Fe‘llarning kuchli va kuchsiz turlarga bo‘linishlari, ularning tuslanish shakllari, gapda fe‘lning qat‘iy (ikkinchi) o‘rni til o‘rganish amaliyotida muammolardan xoli emas. Nemis va o‘zbek tillarida so‘z yasalishi jihatidan bir-birlaridan keskin farq qilgan holda, nemis tili uni o‘rganuvchilar uchun, ayniqsa, ksenizmlarga o‘ta boy til.

## Leksik ksenizmlar

Eng uzun nemischa so‘z. Nemis tili leksikasi uchun xos xususiyatlardan biri so‘z yasalishi doirasidagi ko‘pdan ko‘p qo‘shma so‘zlarning mavjudligidir. Nemis tilining eng uzun so‘zi shu nomli tanlovlarning obyektiga aylangan va nemis matbuotida muntazam e‘lon qilinib kelinadi. Hozirda 80 harfdan iborat va Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan die “*Donaudampfschiffahrtsy Elektrizität enhauptbetriebswerkbauunternehmenbeamtengesellschaft*” so‘zi nemis tilining eng uzun dolzarb so‘zi hisoblanadi. Diqqat bilan qaralsa, ushbu so‘z tarkibida “f” uch marta ketma-ket kelishi tillarda kam uchraydigan hodisa hisoblanadi. Qiyoslash uchun ingliz tilining eng uzun so‘zi “atigi” 45 ta harfdan iborat ekanini e‘tirof etish mumkin [Imöhl & Gelowicz, 2024].

Shu o‘rinda barchasi “ksenologik bo‘yoqqqa” ega bo‘lmasa-da, o‘zbek tilida 300 dan ko‘p nemis tilidan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar borligiga e‘tibor qaratish mumkin. Shuningdek, jahonning aksariyat mamlakatlarida internatsionalizmga aylanib ulgurgan *Buchhalter, Gastarbeiter, Ersatz, Halstuch, Kindergarten, Rucksack, Schlagbaum, Spritze, Waggon Wunderkind* kabi bir qator nemischa so‘zlar, “Das ist fantastisch!” kabi turg‘un iboralar mavjudligini ushbu so‘zlarga nisbatan ksenologik yondashuvdan (leksik ksenizm) darak beruvchi omil sifatida e‘tirof etish mumkin.

Ayni paytda, ksenologigik yondashuvni faqat chet elliklar nazarida va chet tillariga nisbatan emas, ona tili misolida ham kuzatish mumkin. Misol tariqasida Germaniyada muntazam o‘tkazib turiladigan “Yilning eng yaxshi so‘zi”, “Yilning eng xunuk so‘zi”, “Yilning eng yaxshi gapi”, “Nemis tilining eng uzun so‘zi” kabi tanlovlar

nemislarning tilga bo‘lgan ksenologik yondashuvidan darak beradi. Germaniyaning sobiq kansleri A. Merkelning nemis alfaviti misolida Germaniya bilan uzviy bog‘liq so‘zlarning matbuotda chop etilishi va munozaralarga sabab bo‘lishining o‘zi jamiyatda tilga jiddiy munosabat mavjudligidan darak beradi. A.Merkelning nemis alfaviti misolida bevosita Germaniya, nemis mentaliteti bilan bog‘liq “Mening Germaniyam A-Z gacha” (“Mein Deutschland von A bis Z”) sarlavhasi ostida Internet sahifalarida tarqatilgan kalit so‘zlari chet tili soha mutaxassisleri, xususan, nemis tilini o‘qitishda autentik material bo‘lib xizmat qiladi [Ismailov, 2020].

### **Madaniyatlararo muloqot kseonologiyasi**

Aksariyat ilmiy izlanishlarda kseonologiya atamasi bevosita qo‘llanilmasdan turib, uning tarkibiy qismlarini mazmunan ksenologik yondashuv tashkil etadigan qator yo‘nalishlar mavjudligi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan edi. Ulardan eng asosiysi madaniyatlararo muloqot bo‘lib, ushbu nisbatan yangi ilmiy yo‘nalish doirasida tilshunoslar, eng avvalo, chet tili o‘qituvchilari oldida qator muammolar va ularning yechimlari ko‘ndalang turmoqda. XXI asr chet tili o‘qituvchisidan endilikda faqat dars berishni emas, ksenolog sifatida ham o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yish taqozo etiladi [Ismailov, 2024b]. Madaniyatlararo muloqot haqida gap ketganda ushbu tushunchaning nimani anglatishi, uning zaruriyati va tarkiban nimalardan iborat ekanligi haqida savollar paydo bo‘ladi. Madaniyatlararo muloqot umumiyliklar bilan bir qatorda, har bir mintaqa yoki mamlakat uchun ahamiyati, maqsad va vazifalari jihatidan turlicha xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Yevropaning sobiq kolonial davlatlarida (asosan Angliya, Fransiya, Ispaniya) kelib chiqishi Osiyo va Afrika koloniyalari xalqlari vakillari bilan, Germaniya uchun esa o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab mamlakatga taklif etilgan ishchi muhojirlar (gastarbayerlar) va hozirda Germaniyaga kelib, shu yerda qo‘nim topayotgan muhojirlar va migrantlar bilan muloqotga kirishish masalalari ko‘ndalang turadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbekistonliklar uchun esa xorijda ta’lim olish, malaka oshirish, mehnat va turizm maqsadlarida xorijliklar bilan madaniyatlararo muloqotga kirishishga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Bu boradagi vazifa chet elliklar bilan muloqot samarali kechishini ta’minlash, tushunmovchiliklar va muammolarning oldini olish uchun madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Ana shunday vazifa chet tillarini o‘qitish amaliyotida ham o‘ziga xos ravishda o‘z yechimini topishi mumkin. “Kishilar chet tillarini o‘rganishar ekan, begona madaniyatni doimo o‘z madaniy tushunchalari va qarashlari filtri orqali ko‘radilar” [Wierlacher, 1993; 62; Wierlacher & Bogner, 2003]. Asosan, beixtiyor shaklda kechadigan bu xususiyat, o‘z navbatida, chet tillarini o‘rganishda o‘ziga xos ravishda ifodasini topadi. Madaniyatlararo madaniyat muammosining chet tili bilan bog‘liq jihatlari chet tili o‘qitish didaktikasida yangi konsepsiyaning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu konsepsiya doirasida kseonologiya bilan bevosita bog‘liq qator masalalar mavjud bo‘lib, ular shaklan va mazmunan serqirraligi, murakkabligi va subyektivligi bilan ajralib turadi.

Kseonologiyada obyektivlik va subyektivlik masalasi o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘lishiga yuqorida to‘xtalib o‘tildi. Birinchidan, kseonologiya o‘zining

asl mohiyati va tabiatiga ko‘ra obyektiv hodisa, ya‘ni insoniyat tarixining barcha bosqichlarida jamiyatda begonasirash va yotsirash mavjud bo‘lgan, hozirda ham mavjud va kelajakda ham sodir bo‘ladi. Subyektivlik omilining hukmronligi esa ksenologik hodisalarga baho (yaxshi yoki yomon) berish, aksariyat hollarda esa salbiy baholash ustunligi bilan ajralib turadi. Subyektivlik ko‘pincha xurofot va stereotip shaklida namoyon bo‘ladi. Ularga qarshi kurashish amaliyotda katta yutuqlarga olib kelmagan, chunki, 18-asrda hukmronlik qilgan Prussiya qiroli Buyuk Fridrix ta‘kidlaganidek, “xurofotlarni eshikdan haydasangiz, derazadan qaytib kirib kelaveradi” [Heringer, 2007; 181]. Shuning uchun, ksenizm odatda xurofot va stereotiplar moyil bo‘lgan hazillar, karikaturalar, adabiyot, kino hamda teatrdan namoyon bo‘ladi. Buning uchun M.Tvenning unga xos bo‘lgan nemis tiliga yumoristik ravishdagi ksenologik munosabatini eslab o‘tish kifoya.

Yuqorida chet tilini o‘rganish bilan bog‘liq lingvistik ksenologiyadan ayrim misollar keltirib o‘tildiki, ularning aksariyati tilning ichki qatlam unsurlariga tegishli. Ayni paytda chet tili o‘qitish metodikasi va didaktikasi juda keng ko‘lamli bo‘lib, ksenologik xususiyat chet tillarini o‘qitishning boshqa jihatlari, masalan, mavjud o‘quv darsliklarida ham o‘z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, chet tili darsliklari ksenologiya uchun eng boy tadqiqot manbaidir. Buning uchun esa chet tili darsliklariga e‘tiborliroq nazar tashlashning o‘zi kifoya. Ayniqsa, xorijlik soha mutaxassislari bu borada katta tajribaga egalar. Bunga nemis tadqiqotchisi K.Ridel-Shtiyeglarning ispan tili darsliklarining tahliliga bag‘ishlangan “Chet tili o‘qitish didaktikasi ksenologiyasi” (“Xenologie in der Fremdsprachendidaktik”) asari yaqqol misol bo‘la oladi [Riedel-Stiegler, 2017]. Chet til o‘qitish amaliyoti orfografiya, fonetika, grammatika va leksika kabi sof lingvistik, ya‘ni tilning ichki tuzilmalaridagi yot unsurlar bir qaraganda asosiy va yetarli qaralsa-da, bir paytning o‘zida (yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek) ham sotsiolingvistik hodisa, ham madaniyatlararo kommunikatsiya masalalari til o‘rganishning muhim omillaridan biriga aylangan. “Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘rgatish va baholash” (CEFR) risolasida lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar uchligi kommunikativ kompetensiyaning asosi sifatida uqtilirishi bejiz emas [Der Europarat, 2013]. Boz ustiga sotsiolingvistik va madaniyatlararo muloqot til o‘qitishda borgan sari ustuvorlik qilmoqda va chet tili o‘qitish fani sifatida haqli ravishda o‘quv dasturlariga kiritilgan. Buning sababi, birinchidan tilning ichki tuzilmalari yetarlicha o‘rganilganidan bo‘lsa, ikkinchidan xorij mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarining kengayib borishi turli xalqlar va madaniyatlarning muloqotga kirishishlari doirasida shunga xos va mos tadqiqot va izlanishlarni taqozo qiladi.

Tili o‘rganilayotgan mamlakat, uning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan bog‘liq bilimlar majmuasi keng qamrovli bo‘lib, Yevropa mamlakatlari xalqlari, xususan, Germaniya uchun bu borada quyidagi mavzular alohida dolzarbligi bilan ajralib turadi [Der Europarat, 2013]. Nemis va o‘zbek xalqlari qiyosi misolida begona tuyulishi mumkin bo‘lgan ayrim madaniyatlararo ksenizmlarga misollar keltirishga harakat qilamiz:

1. *Kundalik hayot*. Ovqatlanish va dasturxon atrofida o‘zini tutish bilan bog‘liq

vaziyatlarda nemislarda ovqatlarning ketma-ketlikda tortilishi, o‘zbeklarda esa dasturxonning to‘ldirilishi, dasturxon atrofida ovqatlanishga undash va qistovlarda katta farqlar mavjud. Nemislarning dasturxon atrofida burun qoqishlari faqat o‘zbeklarda emas, ayrim Yevropa xalqlarini ham hayratga solishi bilan bog‘liq ksenizmlar uchraydi.

2. *Yashash sharoitlari*. Nemislarda bir xonadonda bir avlod vakillari, o‘zbeklarda esa ikki yoki uch avlod vakillarining bir paytning o‘zida faqat bir uyda emas, hatto bir xonada ham birga yashashlari va ushbu vaziyat bilan bog‘liq kommunikativ jarayonlar.

3. *Kishilar o‘rtasidagi munosabatlar*. Sensirash va sizsirash bilan bog‘liq vaziyatlar. Oilalarda jinsiy farqlar bilan bog‘liq holda, xususan, nemislarda oila a‘zolari o‘rtasida asosan sensirashning keng tarqalganligi, o‘zbeklarda esa yoshi kichiklarning katta yoshdagilarni sizsirashlari, aksariyat hollarda erning turmush o‘rtog‘ini sensirashi, ayolning esa erini sizsirashi, O‘zbekistonning ayrim hududlarida kattalar tomonidan bolalarga “Siz” murojaati kabi.

4. *Tafakkur, dunyoqarash, mentalitet, qadriyat va munosabatlar*. An‘analarga sodiqlik va ularga rioya qilish, yoshi kattalarga hurmat-ehtirom, milliy-madaniy meros, ijtimoiy qatlamda otaning o‘rni. Nemis va o‘zbek mentalitetidagi farqlar. Perfeksionizm nemislarning, andisha esa o‘zbeklar mentalitetining kaliti sifatida. Milliy o‘zligini anglash bilan bog‘liq jihatlar: ota-bobolar, tarixiy shaxslarga hurmat-ehtirom. Institutsional farqlar, masalan, o‘zbek pasportlarida millat ko‘rsatilgan bir paytda nemislarning pasportlarida millatidan qat‘i nazar barchaga “nemis fuqorasi” deb yozilishi.

5. *Noverbal kommunikatsiya, mimika va jestlar*. O‘zbeklarda ta‘zim, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yishning keng tarqalganligi. Tana a‘zolari ifodalanishi bilan bog‘liq farqlar, misol uchun, o‘zbek tilida *jigar* ko‘chma ma‘noda “qarindoshlik”, “og‘ir musibat” kabilarni ifodalasa, nemischa *die Leber* “javrash”, “chanqoqlik” va “xafagarchilik” assotsiatsiyalari bilan bog‘liq. Nemischa “Ja” va “Nein” aniq o‘z ma‘nosida qo‘llansa, o‘zbekcha “Ha” va “Yo‘q” har doim o‘z ma‘nosiga mos kelmasligi. “Jain” (ham *ha*, ham *yo‘q*) yuklamasining o‘zbek tilida muqobillarining yo‘qligi.

6. *Ijtimoiy vaziyatlar*. Mehmon va mezbon munosabatlari bilan bog‘liq hayotiy vaziyatlar: nemislarda mehmonga o‘z vaqtida kelish, sovg‘ani darhol ochib ko‘rish, o‘zbeklarda esa, aksincha, mehmonlar ketgach sovg‘alarni ochish, taom va ichimliklarning tortilishi, o‘zbek tilida ovqatga qistovlar, mehmonlar bilan uzoq xayrlashishlar. Nemislarga “Nega turmush qurmagansiz?”, “Nimaga o‘g‘lingiz yo‘q?”, “Nega ota-onangiz bilan yashamaysiz?”, “Oylik-maoshingiz qancha?” tariqasidagi savollarni bermaslik.

7. *Rasm-rusum, marosim vaziyatlari*. O‘zbeklarda to‘y marosimi va uni o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarning xilmi-xilligi, irim-sirimlardagi milliy va diniy farqlar. Turli tantanalarda kiyinish va o‘zini tutish masalalari.

Nemis va o‘zbek xalqlarining turli etnos, din va madaniyatga oid ekanliklari, ularning turli iqlim sharoitidagi mamlakatlarda yashashlari kabi sabablar tufayli ikki xalq o‘rtasidagi farqlarning keng ko‘lamli va serqirra ekanligi tabiiy holdir. Bundan tashqari, madaniyatlararo tahlil uchun ijtimoiy hayotning barcha vaziyatlarini qamrab

olishning o‘zi ham murakkab vazifa. Buning ustiga O‘zbekiston kabi federal mamlakat hisoblangan Germaniyaning ham turli hududlarida katta farqlar mavjud. Ayni paytda boshqa xalq vakillariga munosabat bildirish, boz ustiga ularga ayrim fazilat va illatlarni “taqab qo‘yish” subyektiv omillar qatoriga kiradi, chunki bir paytning o‘zida bir fikr va xulosaga zid keluvchi boshqa fikr va xulosani keltirib chiqarishi mumkin. Shu va bir qator subyektivliklarga qaramasdan, ikki xalq vakillari o‘rtasida tushunmovchiliklarning olib kelishi mumkin bo‘lgan ksenologik holatlarni hisobga olgan holda amalda samarali kommunikativ jarayonga erishish mumkin.

## XULOSA

Ksenologiya mavzusi doirasidagi soha adabiyoti tahlili mazkur ilmiy yo‘nalish bir qator fanlararo, ayniqsa, gumanitar fanlarni o‘zida jamlagan holda jamiyatda yillar davomida yig‘ilib qolgan umumbashariy bilimlarni egallashga qaratilgan yangidan yangi tadqiqotlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi. Umumnatijada begona unsurlarni o‘rganish natijalaridan kelib chiqadigan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashga, ayniqsa, xalqaro hamjamiyat doirasida kommunikativ jarayonlar ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ksenologik yondashuv Germaniya uchun migratsion jarayonlar sababli muhim bo‘lsa, O‘zbekiston uchun chuqurlashib borayotgan xalqaro hamjamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashda alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ksenologik tadqiqotlar ikki xil ko‘rinishga ega holda namoyon bo‘ldi: bevosita “ksenologiya” atamasini qo‘llanilgan va uni qo‘llamay turib, mazmunan ushbu mavzu doirasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning mavjud ekanligi.

Maqoladan ko‘zlangan maqsad doirasida fanlararo ilmiy yo‘nalish hisoblangan ksenologiyadan uning lingvistik tarkibiy qismlari ajratildi va lingvistikksenologiyaning umumiy chizgilari belgilab olindi. Ksenologik lingvistikani tarkiban sotsiolingvistik, lingvistik va madaniyatlararo kommunikatsiyalardan iborat uch yo‘nalishda tasniflash mumkin bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, sotsiolingvistik ksenologiya, (sof) lingvistik ksenologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya ksenologiyasi atamalarini ilmiy munozaraga kiritishga olib keldi. Ilmiy, ilmiy-ommabop va nemis matbuotidan olingan ko‘p sonli misollar ilmiy-nazariy fan hisoblangan ksenologiyaning amaliyotda yorqin ifodalanishini ko‘rsatdi. Ayni zamonda lingvistik ksenologiya tilning ichki qatlamidagi begona unsurlarni ifodalasa, sotsiolingvistik ksenologiyada va madaniyatlararo kommunikatsiya ksenologiyasida tildan tashqari, ya‘ni begona til unsurlariga jamiyat a‘zolari tomonidan munosabati o‘z aksini topdi. Bu bilan tilga nisbatan xurofot, stereotip va klishelardan iborat subyektiv omillar ustuvorligi aniqlandi. Ksenologik tilshunoslikning har uch turini qator omillar birlashtirgan holda, chet tillarini o‘qitish amaliyotidagi umumiylik alohida ahamiyati bilan ajralib turadi. Ksenologik jihatdan shu paytgacha O‘zbekistonda germanistik ilmiy tadqiqotlar va nemis tilini o‘qitish amaliyotida ma‘lum bo‘shliq mavjud bo‘lib, ona va chet tili o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqotga oid farqlar bir tarafflama, ya‘ni qiyoslash asosida o‘rganilgan, begona unsur mazmunidagi badiiy matnlar esa faqat adabiy tahlil orqali o‘rganib kelinmoqda. Til hodisalariga ksenologik tizimli yondashuv bugungi kunga kelib davr talabiga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu maqola yo‘nalishida ko‘zlanmagan, ayni vaqtda esa

muhimligi va hajm jihatidan alohida konsepsiyaga loyiq tadqiqot obyektini tashkil qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, R. (2015). Nemis tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohazalar (M.Tvenning "Dahshatli nemis tili" adabiy-tanqidiy essesi misolida). *"Ilmiy muzokara: filologiya, lingvistika va pedagogika masalalari"* respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (B. 45–47). Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.
2. Albrecht, C. (1993). *Kulturthema Fremdheit* (A.Wierlacher (Hrsg.)). München: Iudicium.
3. Ataman für entspanntere Diskussion über Gendersprache. (5. Januar 2024). In *Zeit Online*. <https://www.zeit.de/news/2024-01/05/ataman-fuer-entspanntere-diskussion-ueber-gendersprache>.
4. Bünting, K.-D. (1996). *Deutsches Wörterbuch: Mit der neuen Rechtschreibung*. Chur, Schweiz: Isis Verlag.
5. Der Europarat. (2013). *Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen: lernen, lehren, beurteilen*. München: Langenscheidt.
6. Die Russen kommen. (3. Dezember 2024). In *Wikipedia*. [https://de.wikipedia.org/wiki/Die\\_Russen\\_kommen](https://de.wikipedia.org/wiki/Die_Russen_kommen).
7. Duala-M'bedy, D.M. (2021). *Xenologie: die Wissenschaft vom Fremden und die Verdrängung der Humanität in der Anthropologie*. Breisgau: Alber.
8. Göttert, K.H. (2010). *Deutsch: Biographie einer Sprache*. Berlin: Ullstein.
9. Hanowell, H. (Hrsg., Übers.). (2018). *Die schreckliche deutsche Sprache* (von M.Twain). Reclam Verlag.
10. Heringer, H.J. (2007). *Interkulturelle Kommunikation* (2. Aufl.). Stuttgart: UTB.
11. Hüber, Y., Ingwersen, N., & Hoelzmann, H. (1. April 2024). DFB ändert Rückennummer 4. *Bild.de*. <https://www.bild.de/sport/fussball/nationalmannschaft/dfb-aendert-rueckennummer-4-wegen-nazi-symbolik-87721344.bild.html>.
12. Imöhl, S., & Gelowicz, S. (10. Juni 2024). Das ist das längste Wort der deutschen Sprache. *Wiwo.de*. <https://www.wiwo.de/politik/deutschland/laengstes-deutsches-wort-das-ist-das-laengste-wort-der-deutschen-sprache-/8290960.html>.
13. Ismailov, Y.N. (2020). Raqamli kompetensiyadan kognitiv kompetensiya, kognitiv kompetensiyadan kommunikativ kompetensiya sari: chet tillarini raqamli texnologiyalar orqali o'qitish va o'rganishning imkoniyatlari. *Sovremennoye obrazovaniye*, 12(97), 56–64.
14. Ismailov, Y. (2024a). DaF als xenologisches Fach. *"Qiyosiy filologiyaning dolzarb masalalari"* xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (B. 364–369). Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
15. Ismailov, Y. (2024b). Von der Fremdsprachenlehre zur Xenopädagogik – vom Fremdsprachenlehrer zum Xenopädagogen. *"Ko'p madaniyatli makonda til ta'limi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari* (B. 83–88). Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
16. Jung, M. (1993). Sprachgrenzen und die Umrisse einer xenologischen Linguistik. *Jahrbuch Deutsch als Fremdsprache*, 19, 203–230.
17. Klappenbach, R., & Steinitz, W. (Hrsg.). (1967). *Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache*. Berlin: Akademie-Verlag.
18. Langner, M. (27. März 2024). Alle Flixbus-Toten sind Frauen. *Bild.de*. <https://www.bild.de/regional/leipzig/leipzig-news/flixbus-unfall-bei-leipzig-ermittlungen-wegen-fahrlaessiger-toetung-87684548.bild.html>.
19. Mirzayev, T. (Tahr.). (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati* (1-j. A–D). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
20. Plé, B. (2003). Empathie. In A.Wierlacher & A.Bogner (Hrsg.), *Handbuch interkulturelle Germanistik* (s. 32–38). Weimar: Verlag J.B.Metzler.
21. Putin-Brandbrief erschüttert SPD. (26. März 2024). *Bild.de*. <https://www.bild.de/politik/>

- inland/politik-inland/putin-brandbrief-erschuettert-spd-historiker-rechnen-mit-scholz-ab-87660728.bild.html.
22. Rakhimova, G. (2018). Zum Usbeken- und Usbekistanbild im deutschsprachigen Raum. *Dr. phil. diss.* Freiburg.
  23. Richtig Gendern – Infos zu Regeln und Methoden. (5. August 2022). In *Bachelor Print*. <https://www.bachelorprint.de/richtig-gendern/>.
  24. Riedel-Stiegler, H. (2017). *Xenologie in der Fremdsprachendidaktik. Analyse der Spanischlehrbücher „A\_topo.com“ und „¡Adelante!“*. München: Grin Verlag.
  25. Roche, J. (2009). *Deutsch als Fremdsprache: Gedanken zu Geschichte, Gegenwart und Zukunft eines xenologischen Faches*. München: LIT.
  26. Schieferdecker, D. (20. September 2023). Vorsicht, Nazi-Vokabular! 10 Worte mit rechtsextremer Herkunft, die man nicht mehr nutzen sollte. *Esquire.de*. <https://www.esquire.de/news/gesellschaft/verbrannte-worte-10-worte-ns-nazis-nationalsozialismus>.
  27. Tidona, G. (2014). *Das Fremde: Ein Wegweiser durch die Xenologie*. Würzburg: Verlag Königshausen & Neumann.
  28. Twain, M. (1880). *A tramp abroad*. London: American Publishing Company.
  29. Wahrig. (1997). *Deutsches Wörterbuch*. Gütersloh: Bertelsmann Lexikon Verlag.
  30. Wierlacher, A. (1993). *Kulturthema Fremdheit: Leitbegriffe und Problemfelder kulturwissenschaftlicher Fremdeheitsforschung*. Munich: Iudicium.
  31. Wierlacher, A., & Bogner, A. (Hrsg.). (2003). *Handbuch interkulturelle Germanistik*. Stuttgart: J.B. Metzler. <https://doi.org/10.1007/978-3-476-05010-6>.
  32. YUNESKO. (1995-yil 16-noyabr). Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi. *NRM.uz*. [https://nrm.uz/contentf?doc=122659\\_bag%E2%80%98rikenglik\\_tamoyillari\\_deklaratsiyasi\\_\(parij\\_1995\\_yil\\_16\\_noyabr\)&products=1\\_zakonodatelstvo\\_respubliki\\_uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=122659_bag%E2%80%98rikenglik_tamoyillari_deklaratsiyasi_(parij_1995_yil_16_noyabr)&products=1_zakonodatelstvo_respubliki_uzbekistan).

## REFERENCES

1. Abdullaeva, R. (2015). Reflections on the distinctive features of the German language (based on M. Twain’s literary-critical essay “The Awful German Language”). *Proceedings of the Republican Scientific-Practical Conference of ‘Scientific Discussion: Issues of Philology, Linguistics and Pedagogy’* (pp. 45-47). Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
2. Albrecht, C. (1993). *Foreignness as a cultural theme* (A. Wierlacher (Ed.)). Munich: Iudicium.
3. Ataman calls for more relaxed discussion about gender-inclusive language. (2024, January 5). In *Zeit Online*. <https://www.zeit.de/news/2024-01/05/ataman-fuer-entspanntere-diskussion-ueber-gendersprache>.
4. Bünting, K.-D. (1996). *German dictionary: With the new spelling*. Chur, Switzerland: Isis Publishing House.
5. Council of Europe. (2013). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Munich: Langenscheidt.
6. Duala-M’bedy, D.M. (2021). *Xenology: The Science of the foreign and the displacement of humanity in anthropology*. Breisgau: Alber.
7. Göttert, K.H. (2010). *German: Biography of a language*. Berlin: Ullstein.
8. Heringer, H.J. (2007). *Intercultural communication* (2nd ed.). Stuttgart: UTB.
9. Hüber, Y., Ingwersen, N., & Hoelzmann, H. (2024, April 1). DFB changes Jersey number 4. *Bild.de*. <https://www.bild.de/sport/fussball/nationalmannschaft/dfb-aendert-rueckennummer-4-wegen-nazi-symbolik-87721344.bild.html>.
10. Imöhl, S., & Gelowicz, S. (2024, June 10). This is the longest word in the German language. *Wiwo.de*. <https://www.wiwo.de/politik/deutschland/laengstes-deutsches-wort-das-ist-das-laengste-wort-der-deutschen-sprache-/8290960.html>.
11. Ismailov, Y. (2024a). German as a foreign language as a xenological subject. *Proceedings of the International Scientific-Practical Conference “Current Issues in Comparative Philology”* (pp. 364–369). Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.

12. Ismailov, Y. (2024b). From foreign language teaching to xenopedagogy - from foreign language teacher to xenopedagogue. Proceedings of the International Scientific-Practical Conference 'Language Education in a Multicultural Space' (pp. 83–88). Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
13. Ismailov, Y.N. (2020). From digital competence to cognitive competence, from cognitive competence to communicative competence: Possibilities of teaching and learning foreign languages through digital technologies. *Modern Education*, 12(97), 56–64.
14. Jung, M. (1993). Language Boundaries and the Outlines of a Xenological Linguistics. *Yearbook German as a Foreign Language*, 19, 203–230.
15. Klappenbach, R., & Steinitz, W. (Eds.). (1967). *Dictionary of contemporary German*. Berlin: Akademie-Verlag.
16. Langner, M. (March 27, 2024). All flixbus fatalities are women. *Bild.de*. <https://www.bild.de/regional/leipzig/leipzig-news/flixbus-unfall-bei-leipzig-ermittlungen-wegen-fahrtaessiger-toetung-87684548.bild.html>.
17. Mirzayev, T. (Ed.). (2006). *Explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vol. 1, A-D). Tashkent: State Scientific Publishing House of 'National Encyclopedia of Uzbekistan'.
18. Plé, B. (2003). Empathy. In A. Wierlacher & A. Bogner (Eds.), *Handbook of Intercultural German Studies* (pp. 32–38). Weimar: J.B. Metzler Publishing.
19. Putin letter rocks SPD. (March 26, 2024). *Bild.de*. <https://www.bild.de/politik/inland/politik-inland/putin-brandbrief-erschuettert-spd-historiker-rechnen-mit-scholz-ab-87660728.bild.html>.
20. Rakhimova, G. (2018). On the Image of Uzbeks and Uzbekistan in German-Speaking regions. *PhD thesis*. Freiburg.
21. Riedel-Stiegler, H. (2017). *Xenology in foreign language didactics: Analysis of Spanish Textbooks "A tope.com" and "¡Adelante!"*. Munich: Grin Verlag.
22. Roche, J. (2009). *German as a foreign language: Thoughts on the past, present and future of a xenological subject*. Munich: LIT.
23. Schieferdecker, D. (2023, September 20). Caution, Nazi vocabulary! 10 words with right-wing extremist origins that should no longer be used. *Esquire.de*. <https://www.esquire.de/news/gesellschaft/verbrannte-worte-10-worte-ns-nazis-nationalsozialismus>.
24. The Russians are coming. (2024, December 3). In *Wikipedia*. [https://de.wikipedia.org/wiki/Die\\_Russen\\_kommen](https://de.wikipedia.org/wiki/Die_Russen_kommen).
25. Tidona, G. (2014). *The foreign: A guide through xenology*. Würzburg: Königshausen & Neumann Publishing.
26. Twain, M. (1880). *A tramp abroad*. London: American Publishing Company.
27. UNESCO. (1995, November 16). Declaration of principles on tolerance. *NRM.uz*. [https://nrm.uz/contentf?doc=122659\\_bag%E2%80%98rikenglik\\_tamoyillari\\_deklaraciyasi\\_\(parij\\_1995\\_yil\\_16\\_noyabr\)&products=1\\_zakonodatelstvo\\_respubliki\\_uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=122659_bag%E2%80%98rikenglik_tamoyillari_deklaraciyasi_(parij_1995_yil_16_noyabr)&products=1_zakonodatelstvo_respubliki_uzbekistan).
28. Using gender-inclusive language correctly - Information about rules and methods. (2022, August 5). In *Bachelor Print*. <https://www.bachelorprint.de/richtig-gendern/>.
29. Wahrig. (1997). *German dictionary*. Gütersloh: Bertelsmann Lexikon Publishing.
30. Wierlacher, A. (1993). *Foreignness as a cultural theme: Key concepts and problem areas in cultural studies research on foreignness*. Munich: Iudicium.
31. Wierlacher, A., & Bogner, A. (Eds.). (2003). *Handbook of intercultural german studies*. Stuttgart: J.B. Metzler. <https://doi.org/10.1007/978-3-476-05010-6>.